Samar Bonu ijodida tashxis san’ati

Raimova Hilolaxon Mamurjon qizi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafi doktori (PhD)

G‘afforova Gulzirabonu Zarifjon qizi

Qo‘qon universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samar Bonu ijodida qo‘llangan tashxis san’atining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoiraning she’riy asarlarida tabiat hodisalari, jonivorlar va mavhum tushunchalarning insoniy sifatlar bilan tasvirlanishi orqali poetik obrazlarning ta’sirchanligi ochib beriladi. Tashxis san’ati vositasida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, hissiy holati va falsafiy mushohadalari ifodalangani misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, Samar Bonu she’riyatining o‘ziga xos uslubi hamda badiiy mahorati adabiy-nazariy jihatdan baholanadi. Tadqiqot natijasida tashxis san’ati shoira ijodining muhim poetik unsurlaridan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: tashxis san’ati, Samar Bonu ijodi, o‘zbek she’riyati, badiiy tasvir vositalari, poetik obraz, lirika, badiiy mahorat, she’riy tahlil, poetik uslub.

Abstract. This article analyzes the artistic and aesthetic features of the diagnostic art used in the work of Samar Bonu. The expressiveness of poetic images is revealed through the depiction of natural phenomena, animals and abstract concepts with human qualities in the poet's poetic works. The expression of the lyrical hero‘s spiritual experiences, emotional state and philosophical observations through the diagnostic art is illustrated on the basis of examples. Also, the unique style and artistic skill of Samar Bonu's poetry are evaluated from a literary and theoretical perspective. The research proves that the diagnostic art is one of the important poetic elements of the poet'swork.

Keywords: diagnostic art, Samar Bonu's work, Uzbek poetry, means of artistic depiction, poetic image, lyrics, artistic skill, poetic analysis, poetic style.

Аннотация. В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности диагностического искусства, используемого в творчестве Самара Бону. Выразительность поэтических образов раскрывается через изображение природных явлений, животных и абстрактных понятий с человеческими качествами в поэтических произведениях поэта. На примерах иллюстрируется выражение духовных переживаний, эмоционального состояния и философских размышлений лирического героя посредством диагностического искусства. Также с литературно-теоретической точки зрения оцениваются уникальный стиль и художественное мастерство поэзии Самара Бону. Исследование доказывает, что диагностическое искусство является одним из важных поэтических элементов творчества поэта.

Ключевые слова: диагностическое искусство, творчество Самара Бону, узбекская поэзия, средства художественного изображения, поэтический образ, лирика, художественное мастерство, поэтический анализ, поэтический стиль.

Samar Bonu o‘zbek shoirasi,ma’rifatparvari bo‘lib, iste’dodi ota-bobosini me’ros ekanligini ta’kidlagan.Ularning asarlariga tajnis,tatabbular yozgan.Samar Bonuning she’riyatga,ijodga ixlosi balad bo‘lgan.Samar Bonuni ko‘plar O‘sh shahrida yashab, ijod qilgan shoira sifatida biladi.[1,123] Biroq u O‘shda tug‘ilib,voyaga yetgan bo‘lsa-da, o‘n sakkiz yoshida umrining oxiriga Mingtepadagi O‘qchi qishlog‘ida yashab,ijod qiladi. Samar Bonu hayotining og‘ir sinovlaridan,o‘zi yashagan davr adolatsizliklardan faryod cheksa-da,hayotda o‘zini yo‘qotmaydi.Anashu adolatsizliklarga qarshi tura oladi,jasorat ko‘rsatdi. Ayniqsa,oila qurish bobida qiz bolaning erki, ishonch-ixtiyori o‘zida bir davrda bo‘lmagan bir davrda otasiga: “Men o‘zga bir Majnunning Laylisiman” deb ayta olganligi o‘sha davr ayoli uchun chinakam jasort edi. Keyinchalik shoira beayov,bevafo qismatga ham bor kuchi, ovozi

bilan, oqilalik bilan javob qaytaradi. Samar Bonu – zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos uslub va badiiy tafakkurga ega bo‘lgan shoira bo‘lgan.Ijodining muhim jihatlaridan biri- ayol ruhiyatining tasviri. Shoira ayolning ichki dunyosini sabr toqatini,orzu-midlarini nihoyatda noziklik bilan yoritadi. Ayniqsa, onalik mavzusi, mehr va fidoiylik kabi tushunchalar uning she’rlarida o‘ziga xos samimiyat bilan aks etadi. Bu esa shoira ijodini yanada hayotiy va ta’sirchan qiladi. Bundan tashqari shoira zamonaviy hayot muommolarga ham befarq emas. Uning ayrim she’rlarida jamiyatdagi o‘zgarishlar,insoniy qadriyatlar, hayot siniqlari va ruhiy izlanishlar o‘z aksini topadi. Bu esa uning ijodini nafaqat lirik balki, ma’naviy-falsafiy jihatdan ham boyitadi. Uning ijodi ko‘proq lirika yo‘nalishiga mansub bo‘lib, inson qalbining eng nozik va yashirin kechinmalarini ochib berishga qaratilgan. Uning ijodi orqali uning ruhiy dunyosi,estetik qarashlari va hayotga munosabat yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoira ijodida mumtoz adabiyot an’analari g‘azal ruhiyati,ishq falsafasi,obrazlar ramziyligi,bugungi inson kechinmalari,oddiy va tushunarli til zamonaviy ruh bilan uyg‘unlashgan.Samar Bonu – qalb shoirasi.Uning ijodi insonning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. U zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan ijodkorlardan biridir. Samar Bonu o‘z she’rlarini oqqa ko‘chirib, ikki nusxa devon tuzgan.

O‘zbek adabiyoti azaldan nozik tuyg‘ular, chuqur falsafiy qarashlari va inson ruhiyatining betakror tasvirlari bilan boy bo‘lib kelgan. Bu an’anani davom ettirayotgan zamonaviy shoiralar orasida Samar Bonu o‘ziga xos ovozga ega ijodkor sifatida ajralib turadi. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotda badiiy tasvir vositalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir va shoiralar o‘z kechinmalarini,ruhiy holatini,hayotiy falsafasini ifodalashda turli san’atlardan foydalanadilar.Uning she’rlari oddiy so‘zlar orqali murakkab tuyg‘ularni ifodalashga qodirligi bilan qalblarga tez yo‘l topadi. Samar Bonu ijodi-bu faqat she’r emas, bu inson qalbining yashirin qarlamlariga sayohatdir. Samar Bonu ijodining asosiy yo‘nalishlari muhabbat va sadoqat, sog‘inch va hijron, yolg‘izlik va iztirob, hayot falsafasi bu mavzular har bir inson hayotiga yaqin bo‘lgani sababli uning she’rlari insonlarni befarq qoldirmaydi. Samar Bonu she’rlarida muhabbat oddiy tuyg‘u emas, balki butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. U muhabbatni nafaqat quvonch, balki sinov, sabr va iztirob sifatida ham ko‘rsatadi. Shoira ijodining eng kuchli jihatlaridan biri-tashxis san’atidan mahorat bilan foydalanishdir. Shoira tunni yig‘latadi, shamolni so‘zlatadi, yurakka jon bag‘ishlaydi. Bu esa she’rni odddiy matndan san’at asariga aylantiradi. Tashxis orqali shoira jonsiz narsalarga jon, harakat va tuyg‘u bag‘ishlab, she’rni oddiy ifodadan haqiqiy san’at darajasiga ko‘taradi. [2,320] Uning ijodidda tabiat, vaqt, tun, shamol hatto sukunat ham inson kabi his qiladi, yashaydi va gapiradi. Shoira she’rlarida tashxis faqat badiiy bezak emas, balki ichki kechinmalarni ochib beruvchi asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. U orqali shoira inson qalbidagi eng nozik tuyg‘ularni yani umid va yolg‘izlikni yanada jonli va ta’sirchan qilib ko‘rsatadi. Shoira tashxisni qo‘llashda ortiqcha murakkablikdan qochadi. U soda so‘zlar orqali katta ma’no yaratadi. Shu jihati bilan uning ijodi tabiiy va samimiy tuyiladi. Har bir obraz hayotdan olingan, har bir jonlantirish esa inson ruhiyatiga yaqin.

Badiiy san’atlarning ikkinchi katta guruhi ma’noning birlamchiligiga asoslanib, badi’ ilmida ma’naviy san’atlar deb yuritiladi. Z.Mamajonov ularni o‘xshatish asosidagi san’atlar (tashbih, tamsil, talmih, irsol ul-masal, laff va nashr), majoz asosidagi san’atlar (istiora, kinoya, tashxis, intoq), belgini kuchaytirish asosidagi san’atlar (mubolag‘a, tafrit, iyg‘ol), ifoda usullari asosidagi san’atlar (mulamma’, tajohuli orif, mazhabi kalomiy, husni ta’lil, ruju’, savol-u javob, nido) degan guruhlarga bo‘ladi.

Samar Bonuning mahorati shundaki, u tashxisdan mahorat bilan foydalanib, uni faqat tabiat tasvirida emas, balki ruhiy holatlarni ochishda ham juda ustalik bilan qo‘llaydi. Bundan tashqari shoira tashxis orqali she’rga musiqiylik va tasviriylik ham qo‘shadi. Uning g‘azallarida tabiat, tuyg‘u va borliq unsurlari go‘yo tirik mavjudot kabi harakat qiladi, gapiradi, iztirob chekadi. Misol tariqasida Samar Bonu ijodidan ushbu g‘azalni olishimiz mumkin:

Ko‘rung bir dilbari zolim mening holim xarob aylab,

Yoqub ishq otashin jonimga, bag‘rimni kabob aylab.

Lirik qahramon o‘z yorini zolim deb ataydi.Yor oshiqning qalbida ishq olovini yoqib,uning bag‘rini shu olovda kabob qilgan,ya’ni uni qattiq azobga slogan.

Ko‘zim telmurturub yottim,base ko‘ xor bo‘ldi bosh,

Kirib xilvatda holim so‘rmadi chandin azob aylab.

Ushbu baytda oshiq yorini intizorlik bilan kutib,ko‘zlari yo‘lga tikilib qolgani,ammo yor xilvatda bir bor kirib,uning holidan xabar olmaganidan shikoyat qilmoqda.Oshiqning “Boshi xor bo‘lishi” uning xor-u zorlikdagi holatini ifodalaydi.

Yotib hajringda bemore, bo‘lubman behudu xomush,

Ayo tan,sen nechuk deb so‘rmading muncha itob aylab.

Shoir o‘z tanasiga tirik shaxsdek murojaat qiladi.Tana bu yerda oshiqning dardiga befarq qarayotgan,hol so‘ramayotgan shaxs sifatida gavdalantirilgan.

Talabkori visolingmen,nechukdin bilmading holim,

Kirib oldimga bir soat,chiqarni ko‘p shitob aylab.

Oshiq faqat yorning visoliga mushtoq.U yoridan nima uchun mening holimni tushunmaysan,nega yonimga bir zumga kirib, darrov chiqib ketishga shoshilasan deb gina qiladi.

Xumor aylab ko‘zingni ham qaboqingni suzib boqsang,

Bitay sha’ningga yuz daftar mashoirlik kitob aylab.

Agar yor bir martta bo‘lsa ham oshiqqa mehr bilan,ko‘zlarini suzib boqsa,oshiq uning madhiga yuzlab daftar she’r va kitoblar yozishga tayyorligini aytmoqda.Bu ijodkorning ilhom manbai yorning birgina nigohi ekanligiga ishoradir.

Ko‘zing jallodi berahmu,kamon abro‘laring o‘qlar

Meni bechoraning chun o‘ltururg‘a iztirob aylab.

Bu baytda yorning go‘zallik unsurlari ko‘z qoshlari oshiq mahv etuvchi qurollarga qiyoslanadi.Yorning befarqligi va go‘zalligi oshiq uchun ham hayot,ham o‘lim manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu g‘azal orqali Samar Bonu nafaqat shaxsiy tuyg‘ularini,balki inson qalbining eng yuksak va mashaqqatli holati-ishqiy sadoqat va ruhiy matonatni tarannum etmoqda va azob orqali poklanish va vafoda sobit turish insoniy kamolat eng yuqori nuqtasi ekanini ta’kidlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. To`xtasin Jalolovning “ O`zbek shoiralari”kitobi. Toshkent. B. 123
2. Ishoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 320.
3. Zohidov V. O‘zbek adabiyoti antologiyasi. I jild. -Toshkent: O‘zSSR adabiyoti, 1959. - B. 125

4. Kobilova, Z., & Tursunova, N. (2025). MUMTOZ ADABIYOTDA BADIIY OBRAZ VA OBRAZLILIK. *University Research Base*, 112-120.
5. Raimova, H. (2025). BIR MAVZUNING TURFA TALQINLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 214-216.
6. JUMANOVA, S. O ‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA PEYZAJ LIRIKASINING POETIK AHAMIYATI. FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI, 121.
7. Imomaliyeva, M. (2024). IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR: AN’ANA VA O ‘ZIGA XOSLIK. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 387-389.